XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-63-10-212-K/25 Toshkent tumani

Toshkent tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Toshkent Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1117-sonli xatlari hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2025-yil 19-dekabrdagi bayonnomasi va xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining VII-chaqiriq, XV-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g’risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) O‘RQ-1105-sonli Qonuni va Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi qarori hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 04/1117-sonli xati amalda qo‘llash va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman byudjetining 2026-yilgi daromadlari **116 736 330** ming so‘m va harajatlari **116 736 330** ming so‘m, tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **496 451** ming so‘m, byudjet zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 646 757** ming so‘m miqdorida belgilanganligi inobatga olinsin.

Zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan harajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni hamda kechiktirib bo`lmaydigan boshqa harajatlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Tuman byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** hamda tuman byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan harajatlarning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

4. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda bir gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **3-ilovaga** muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **4-ilovaga** muvofiq;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlar
5-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlar **6-ilova**ga muvofiq;

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar (qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi) **7-ilova**ga muvofiq;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **8-ilova**ga muvofiq;

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar 9-ilovaga muvofiq;

2026-yilda tuman byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **10-ilovaga** muvofiq **tasdiqlansin.**

5. **Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Rixsiyev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov), tuman Soliq inspeksiyasi (S.Abduvaliyev):**

2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rishlari belgilab qo‘yilsin.

Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, harajatlarning amaliy natijalari yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan harajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning harajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va harajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishi;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

6. 2025 yil 25 dekabrdagi “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga asosan hamda 26 -dekabrdagi Murojaatidan kelib chiqib:

tuman (shahar) mahalliy byudjetlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushadigan tushumlardan

viloyat mahalliy byudjetiga qoldiriladigan 20%ning 50%ini tuman daromadlar rejasiga kiritish masalasi yuzasidan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga hamda Toshkent viloyati hokimligiga tegishli murojaat xati kiritilsin.

Natijasi yuzasidan 2026-yilgi tuman byudjeti parametrlariga tegishli o‘zgartirish kiritish masalasi Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasiga qayta tasdiq uchun kiritilsin.

7. Tuman hokimligi Axborot xizmati (D.Ismoilova), “Diyor ovozi” gazetasi muharririyati (S.Matyoqubov)ga mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror ijrosi tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari B.Abduraxmonovga, tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i S.Abduvaliyevga, nazorati tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Rixsiyevga hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ERGASHEV SARDORBEK KADIROVICH**

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Toshkent tumani mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

№	Daromad turlari	Toshkent tumani
	JAMI	**116,736,330**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4,524,510
2	Foyda solig‘i	2,336,010
3	Aylanmadan olinadigan soliq	21,133,000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4,632,990
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	3,674,000
	Aksiz solig‘i jami	1,884,330
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*1,884,330*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,841,900
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	32,183,000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3,414,500
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	33,418,000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0

12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,775,800
	shundan: Qishloq bo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	3,798,000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1,519,200
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	588,950
15	Yig‘imlar	252,800
16	Jarimalar	1,836,540
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	240,000

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Toshkent tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Toshkent tumani
Harajatlar miqdori, jami		**116,736,330**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*32,386,964*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*1,915,800*
2	Madaniyat bo‘limi	*6,555,923*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5,411,826*
4	Sport bo‘limi	*4,944,622*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1,537,880*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2,048,236*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1,764,814*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash harajatlari	*2,229,050*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari harajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*43,198,711*
	shundan:	*0*
	Hokimlik saqlash harajati	*5,539,849*
	Hokim yordamchilari saqlash harajati	*7,194,048*

	Hotin-qizlar faollarining saqlash harajati	*3,406,359*
	(Probatsiya uchun harajatlari)	*320,573*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*21,549,083*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*3,542,042*
	Zahira jamg‘armasi	*1,646,757*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*798,730*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash harajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*798,730*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	15,859,574
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Toshkent tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

Soliq turlari va taqsimlovchilar nomi		**Ajratma me’yori**
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	3%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	3%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	100%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Foyda solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	3%
Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	0%
Pivo	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar	0%

gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	inspeksiyasi bo‘yicha	
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	3%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	10%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	10%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	100%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	100%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Hududlararo yirik soliq to‘lovchilar inspeksiyasi bo‘yicha	0%
	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	0%
Aylanmadan soliq	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	5%
Davlat boji	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	9%
Jarima	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	9%
Yig‘imlar	Davlat soliq inspeksiyasi bo‘yicha	10%

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2026 yil uchun (so‘mda)
1	Soxibkor MFY	0,8	52200	1	548,8
2	Sirgali MFY	0,7	45675	0,8	439,04
3	Sarke MFY	0,7	45675	0,8	439,04
4	Sabzavot MFY	1	65250	1,1	603,68
5	Oktom MFY	0,7	45675	0,8	439,04
6	Oltin tepa MFY	0,75	48937,5	0,9	493,92
7	Oktosh MFY	0,7	45675	0,8	439,04
8	Okibat MFY	1	65250	1,1	603,68
9	Oydin xayot MFY	0,75	48937,5	1	548,8
10	Ozodlik MFY	1	65250	1,1	603,68
11	Tinchlik MFY	0,85	55462,5	1,1	603,68
12	Raxbar obod MFY	1	65250	1,1	603,68

13	Tutzor MFY	1,15	75037,5	1,15	631,12
14	Hiyobon MFY	0,7	45675	1	548,8
15	Uch-chinor MFY (Farovon MFY)	0,75	48937,5	1	548,8
16	O'rikzor MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
17	Yangihayot MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
18	Shirin MFY	0,7	45675	1	548,8
19	Shamsiobod MFY	0,7	45675	0,9	493,92
20	Chuvalachi MFY	0,7	45675	0,8	439,04
21	Uch sada MFY	0,9	58725	1,1	603,68
22	Chigatoy MFY	1	65250	1,1	603,68
23	Nurxayot MFY	0,75	48937,5	1	548,8
24	Xasanboy MFY	1	65250	1,1	603,68
25	Xasanboy guzar MFY	1	65250	1,1	603,68
26	Xalimko‘p MFY (Gulobod MFY)	0,7	45675	1	548,8
27	Fayzobod MFY	1	65250	1,1	603,68
28	Xuvaydo MFY (Iftixor MFY)	1,1	71775	1,1	603,68
29	Mustakillik MFY (Quruvchi MFY)	0,75	48937,5	0,9	493,92
30	Obodlik MFY	0,85	55462,5	1,1	603,68
31	Majnuntol MFY	0,75	48937,5	1	548,8
32	Diydor MFY	1	65250	1,1	603,68
33	Gul tepa MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
34	Gisht kuprik MFY	0,75	48937,5	1	548,8
35	Bunyodkor MFY	1	65250	1,1	603,68
36	Bogizilol MFY	1	65250	1,1	603,68

37	Ma‘rifat MFY	0,75	48937,5	1	548,8
38	Bogbon MFY	0,75	48937,5	1	548,8
39	Beshterak MFY	0,75	48937,5	0,9	493,92
40	Beruniy MFY	0,75	48937,5	0,9	493,92
41	Baxor MFY	1	65250	1,1	603,68
42	Axillik MFY	0,8	52200	1	548,8
43	Alisher Navoiy MFY	1,1	71775	1,1	603,68
44	Ayriota MFY (Sanoat MFY)	0,75	48937,5	1	548,8
45	Avliyo ota MFY	1	65250	1,1	603,68
46	Zarbdor MFY	0,75	48937,5	0,9	493,92
47	Zargar MFY	0,75	48937,5	1	548,8
48	Darxon MFY	1	65250	1,1	603,68
49	Ibrat MFY	0,75	48937,5	1	548,8
50	Zaxarik MFY (E‘zoz MFY)	0,8	52200	1,1	603,68
51	Kir-arik MFY	0,85	55462,5	1,1	603,68
52	Kora burik MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
53	Korasaroy MFY	0,95	61987,5	1,1	603,68
54	Kukterak MFY (Sagbon MFY)	0,85	55462,5	1,1	603,68
55	Kuxinur MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
56	Kizgaldok MFY	1	65250	1,1	603,68
57	Ko‘ksaroy MFY	1	65250	1,1	603,68
58	Kensoy MFY	0,75	48937,5	0,8	439,04
59	Kashkarlik MFY	0,75	48937,5	1	548,8
60	Kalas MFY	0,75	48937,5	1	548,8

61	Istikbol MFY	0,7	45675	0,8	439,04
62	Iqbol MFY	1,15	75037,5	1,15	631,12
63	Kush kundi MFY	0,7	45675	0,8	439,04

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent
1	Toshkent tumani	1.00

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman kesimida 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Toshkent tumani	1.10	1.10	1.15	1.10	1.00

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar (qishloq hoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Toshkent tumani	1.15	1.15	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
19	Toshkent tumani	1.25	1.15	1.15	1.25	1.25	1.25	1.30

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
9-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Toshkent tumani	1.10	1.00

Xalq deputatlari Toshkent tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-63-10-212-K/25 -son qaroriga
10-ilova

2026-yilda tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

№	Hududlar bo‘yicha jami	2026-yil
1	Toshkent tumani	496,451